



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

TA'LIM JARAYONIDA EVFEMIZMLARNI O'RGATISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK ASOSLARI

Hakimjonova Dilnavoz Otabek qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti, II bosqich magistranti

Gulyamova Shaxnoza Kahramonovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti, v.b. professor, DSc

Annotatsiya

Maqolada ta'lim jarayonida evfemizmlarni o'rgatishning pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil qilinadi. Ularning nutq madaniyati, kommunikativ kompetensiya hamda ijtimoiy-muomala ko'nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: evfemizm, nutq madaniyati, pedagogik yondashuv, psixologik asos, kommunikativ kompetensiya, muloqot etikasi, ta'lim jarayoni.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ЭВФЕМИЗМАМ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Хакимжонова Дилнавоз Отабек кизи

Ташкентский университет прикладных наук, магистрант II курса

Гулямова Шахноза Кахрамоновна

Ташкентский университет прикладных наук, и.о. профессора, доктор наук (DSc)

Аннотация

В статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты обучения эвфемизмам в образовательном процессе. Раскрывается их роль в формировании речевой культуры, коммуникативной компетенции и социально-коммуникативных навыков обучающихся.

Ключевые слова: эвфемизм, речевая культура, педагогический подход, психологическая основа, коммуникативная компетенция, этика общения, образовательный процесс.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING EUPHEMISMS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Hakimjonova Dilnavoz Otabek qizi

Tashkent University of Applied Sciences, 2nd-year Master's Student

Gulyamova Shaxnoza Kahramonovna

Tashkent University of Applied Sciences, Acting Professor, Doctor of Science (DSc)

Abstract

The article examines the pedagogical and psychological aspects of teaching euphemisms in the educational process. It highlights their role in developing speech culture, communicative competence, and socio-communicative skills.

Key words: euphemism, speech culture, pedagogical approach, psychological basis, communicative competence, communication ethics, educational process.

Hozirgi davrda tilshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlarining

integratsiyalashuvi o'quv jarayoniga yangi nazariy va amaliy yondashuvlarni olib kirmoqda. Til o'qitish jarayonida faqat grammatik va leksik bilimlarni emas, balki nutq madaniyati, kommunikativ etika va psixologik moslashuvni shakllantirish ham asosiy vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, evfemizmlarni o'rgatish masalasi alohida yondashuv talab qiladi, chunki bu hodisa insoniy muloqotda yumshoqlik, hurmat va odob belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Evfemizm (yun. euphemismos – “yaxshi so'zlash”) – bu yoqimsiz, noqulay, tabu yoki keskin mazmunli so'z o'rniga ijobiyroq yoki yumshoqroq ifodaning qo'llanishidir. Ular nafaqat til, balki madaniyat, axloq, ruhiyat va ijtimoiy ongning ifodasi hisoblanadi. Shu bois evfemizmlarni ta'lim tizimida o'rgatish o'quvchilarning nutq etikasini, ijtimoiy hissiyotni va empatiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Evfemizmlar nutqni ijtimoiy jihatdan maqbul, madaniyatli va emotsional jihatdan neytral shaklda yetkazish vositasidir. Ular tabu so'zlar, disfemizmlar va neytral leksik birliklar o'rtasida oraliq vazifani bajaradi. Masalan, o'zbek tilida “vafot etdi” o'rniga “olamdan o'tdi” yoki “hayotdan ko'z yumdi”; “nogiron” o'rniga “imkoniyati cheklangan shaxs”; “qarilik” o'rniga “yosh ulg'aygan davr” kabi ifodalar ishlatiladi. Bu kabi yumshoqlashtirish hodisalari insoniy muloqotda psixologik noqulaylikni kamaytirish, hurmat va izzatni saqlash, tabu mavzularini madaniyatli shaklda ifodalashga xizmat qiladi.

Evfemiya – bu murakkab ijtimoiy, psixologik, kognitiv va tilshunoslik hodisasi hisoblanadi. So'nggi yillarda turli xil nutq turlarida evfemizmlardan foydalanish ayniqsa faol tus olgan va ular nutq faoliyatining muhim sohalarida keng qo'llanilmoqda. Demak, evfemiya hodisasining ko'p qirrali tabiati va uning nutqda faol ishlatilishi pedagogik jarayonda evfemizmlardan to'g'ri foydalanish tamoyillarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Pedagogik diskurs – bu o'qitish, bilim berish, g'oyalarni tarqatish va bilim shakllantirish kabi ijtimoiy faoliyat turlarining majmuyi bo'lib, ularning barchasi til orqali amalga oshiriladi. Shu sababli pedagogik sohada evfemizmlardan kommunikativ strategiya sifatida foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Tilshunos Veronika Katermina evfemizmlarni *ijtimoiy manipulyatsiya* vositasi deb ham ataydi. Chunki ular jamiyatdagi siyosiy, axloqiy yoki diniy normalarga moslashgan holda, so'zlovchi ongida ijobiy taassurot uyg'otishga xizmat qiladi. Shunday ekan, evfemizmlar nafaqat leksik, balki madaniy va *psixologik fenomen* hamdir. [2] Pedagogik diskursda evfemizmlardan foydalanish o'quvchilar va talabalarning psixologik holatini inobatga olgan holda, ularni rad etmaslik, xafa qilmaslik va hissiyotlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi. O'qituvchi tomonidan tanlab ishlatilgan yumshoq iboralar ta'lim jarayonida ijobiy muhit yaratish, o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, evfemizmlar pedagog va o'quvchi o'rtasidagi muloqot jarayonida til orqali amalga oshiriladigan axloqiy-etik me'yorlarning ifodasiga aylanadi. Bu esa pedagogik kommunikatsiyada evfemizmlarni shunchaki til vositasi emas, balki tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish strategiyasi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Xitoylik olim Jiayuan Zhang evfemizmlarning til tizimidagi roli ularning turli funksiyalarni bajarishi bilan belgilanishini yozadi. Ular nafaqat ma'no yumshatuvchi vosita, balki ijtimoiy, psixologik va kommunikativ maqsadlarni amalga oshiruvchi strategiya sifatida ham xizmat qiladi. Shuningdek, olim evfemizmlarning quyidagi asosiy funksiyalarini tahlil qiladi: 1) *xushmuomalalik (politeness) funksiyasi*; 2) *tabu mavzularni yumshatish funksiyasi*; 3) *psixologik himoya funksiyasi*; 4) *ijtimoiy maqom va siyosiy to'g'rilik funksiyasi*; 5) *estetik (go'zallashtiruvchi) funksiyasi*; 6) *yumor va kinoya funksiyasi*.

Ba'zi evfemizmlar so'zlovchining ruhiy himoyasi sifatida xizmat qiladi. Odamlar o'zlariga og'riqli yoki yoqimsiz bo'lgan voqealarni to'g'ridan-to'g'ri aytmaslik uchun

evfemizmlardan foydalanadilar. Bu holatda evfemizm ruhiy bosimni kamaytiradi, voqeani hissiy jihatdan yumshatadi va hissiyotlarni nazorat ostida saqlashga yordam beradi. [6] Pedagogik jarayonda ham o'qituvchilar ba'zan o'z hissiyotlarini nazorat qilish va kasbiy etiketni saqlash maqsadida evfemizmlardan foydalanadilar. Masalan, o'quvchining yomon natijalari yoki xatti-harakatlari haqida ota-onalar bilan suhbatlashganda bevosita tanqid o'rniga yumshoq iboralarini tanlash pedagog uchun ham, ota-onalar uchun ham psixologik jihatdan qulay muhit yaratadi. Bunday yondashuv ta'lim muassasasida konstruktiv muloqotni saqlab qolish va barcha tomonlar o'rtasida ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida evfemizmlarni o'rgatishning pedagogik asoslarini quyidagi yondashuvlarda ko'rish mumkin:

1. *Kommunikativ-faoliyat yondashuvi.* Ta'lim jarayonida tilni o'rgatishda bugungi kunda keng qo'llanilayotgan "kommunikativ-faoliyat" yondashuvi shundan iboratki, o'quvchi faqat grammatik qoidalarini egallamay, balki tilni real muloqotda – so'z tanlash, ohang, madaniyat kontekstida qo'llay olishi kerak. Evfemizmlar bu yondashuvga juda mos keladi: chunki ular so'zlashuv holatlariga sezgir bo'lishni talab qiladi (kimga, qayerda, qaysi kontekstda so'z tanlash kerakligi). Shuningdek, evfemizmlar o'quvchining o'z-o'zini baholash qobiliyatini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi, chunki yumshoq iboralar orqali berilgan fikr-mulohazalar bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotmasdan, kamchiliklarini anglashga yordam beradi. O'qituvchi tomonidan ishlatilgan "hali yaxshiroq ishlash imkoniyati bor" yoki "bu mavzuda qo'shimcha mashg'ulot zarur" kabi iboralar to'g'ridan-to'g'ri "yomon baho" yoki "qobiliyatsiz" degan keskin baholashlardan ko'ra samaraliroq ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, evfemizmlar orqali o'qituvchi o'quvchining shaxsini emas, balki uning aniq bir harakatini yoki natijasini baholaydi, bu esa tarbiyaviy jihatdan to'g'riroq yondashuvdir. Natijada, pedagogik diskursda evfemizmlardan o'rinni foydalanish nafaqat muloqot madaniyatini, balki ta'lim samaradorligini ham oshirishga xizmat qiladi.

2. *Tarbiyaviy (axloqiy-ma'naviy) komponent.* Ta'limda faqat grammatika va lug'atdan emas, balki ular orqali o'quvchilarga til bilan birga odob-axloq, madaniyat, muloqot madaniyatini ham singdirish lozim. Evfemizmlar bu jihatdan muhim sanaladi. Masalan, o'quvchi insonga, mavzuga hurmat bilan munosabat bildirish, ijtimoiy noqulay holatlarni yumshoq tarzda yoritish, so'z tanlash orqali muloqotdagi hurmat-e'tibor, noqulaylikni kamaytirish jihatidan savodli bo'ladi.

3. *Integratsiya tamoyili.* Evfemizmlar faqat til darsida emas, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy ta'lim fanlarida ham o'rganilishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida nozik masalalar (o'lim, kasallik, jamiyatdagi muammolar) evfemistik tahlil qilinadi. Shu tarzda, o'quvchi til va madaniyat aloqasini tushunadi, tilning ijtimoiy jihatlarini anglaydi. Ijtimoiy fanlar darslarida esa tarixiy voqealar, siyosiy jarayonlar va madaniy o'zgarishlarni tasvirlashda turli davrlarda qo'llangan evfemizmlar tahlil qilinishi mumkin, bu esa o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Chet tili darslarida evfemizmlarni o'rganish talabalarning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini oshiradi, chunki har bir tilda ma'lum mavzularni ifodalash uchun o'ziga xos yumshatish usullari mavjud. Bunday integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarga evfemizmlarni faqat lug'aviy birlik sifatida emas, balki jamiyat, madaniyat va til o'rtasidagi murakkab munosabatlarning ko'rinishi sifatida idrok etishga imkon beradi. Natijada, fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni haqiqiy hayotdagi muloqot vaziyatlariga yaxshiroq tayyorlaydi.

4. *Bosqichma-bosqich (gradual) o'rgatish.* Pedagogik jihatdan muhim jihat shundaki, yangi til birliklari, xususan, evfemizm tushunchasi va uni qo'llash ko'nikmalari o'quvchiga bosqichma-bosqich o'rgatilishi lozim. Birinchi bosqichda o'quvchilar evfemizm tushunchasi,

uning asosiy shakllari va vazifalari bilan tanishtiriladi, bu esa ular uchun nazariy asos yaratadi. Keyingi bosqichda matnda evfemizmlarni aniqlash ko'nikmalari rivojlantiriladi – o'quvchi "qaysi so'z yoki ibora aslida nozik yoki to'g'ridan-to'g'ri so'z o'rniida kelgan"ligini mustaqil tushunishni o'rganadi. Uchinchi bosqichda evfemizmni yaratish yoki moslash mashqlari amalga oshiriladi, bunda o'quvchi o'z nutqida nozik vaziyatga mos so'z tanlay olish qobiliyatini egallaydi. Nihoyat, kommunikativ mashqlar orqali turli hayotiy vaziyatlar – masalan, salbiy yangilikni yetkazish, tanbeh berish, noqulay mavzuni muhokama qilish kabi holatlar uchun evfemizmlardan to'g'ri foydalanish amaliyoti mustahkamlanadi. [4] Bunday tizimli yondashuv o'quvchilarda nafaqat nazariy bilim, balki amaliy kommunikativ kompetensiyani ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalar, o'quvchilar nutqda ma'lum vaziyatlarda to'g'ri xulq-atvor va nutq madaniyatini namoyon eta olmasliklari, talabalarni nutqda evfemizmlardan foydalanishga o'rgatish masalasini dolzarb qiladi. Shu bilan birga, bu muammo nutq madaniyatini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aynan evfemizmlarni qo'llash kontekstida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida evfemizmlarni o'rgatishning qator psixologik asoslari mavjud. Jumladan:

1. *Yuzni saqlash tamoyili (hurmat).* Ijtimoiy psixologiyada "face" – ya'ni shaxsning jamiyat oldidagi sharafiga, hurmati tushunchasi bor. Muloqotda evfemizmlar odatda "to'g'ridan-to'g'ri so'z" aytilsa, kelishmovchiliklarga olib kelishi mumkin holatlarda (tanbeh, muammo, salbiy xabar) asl holatni yumshatish uchun ishlatiladi. Evfemizmlar talabalarning bilim egallashini baholashda yordam beradi va ularni noqulay vaziyatlardan himoya qiladi. Talabalar salbiy bahoga yoki xato javoblarga duch kelganda, o'qituvchi ularning psixologik holatini hisobga olib, muloyim va ijobiy ifodalar orqali fikrini yetkazishi lozim. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi sinf ichida evfemistik tildan foydalanganda, o'quvchining "men xato qilganman" degan holatda yuzini yo'qotmasdan, muloqotga kirishishi osonroq bo'ladi. Bu pedagogik muhitda – "xato jazolanadi" degan ruhni yumshatib, "xato qilish tabiiy, lekin so'zlashuv odobli bo'lishi lozim" degan fikrni shakllantirishga yordam beradi. [4]

2. *Stress va emotsional xavfsizlik.* Bolalar va o'smirlar uchun til – faqatgina axborot almashish vositasi emas, balki psixologik jihatdan o'zini ifodalash maydoni. Agar nozik yoki salbiy holatlar (masalan, kasallik, muammo, tanbeh) aniq, qo'pollik bilan aytilsa, o'quvchi e'tibordan chetda qolgan, xato qilgan, ranjirilgan his qilishi mumkin. Evfemistik iboralar esa bu xavfni kamaytiradi. Masalan, "sen xato qilding" degan keskin baholash o'rniga "bu safar biroz qiyinroq bo'lib ketdi" yoki "keyingi safar yaxshiroq chiqadi" kabi yumshoq iboralardan foydalanish mumkin. Bunday til tanlovi orqali ijobiy psixologik muhit yaratiladi va o'quvchining o'z-o'ziga ishonchi saqlanib qoladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, evfemizmlarni o'rgatish o'quvchilarning tilga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartiradi – ular tilni "muloqot quroli" sifatida emas, balki "hurmat va mehr bilan ifodalash vositasi" sifatida qabul qilishni o'rganadilar. [1] Natijada, o'quvchilar nafaqat lug'aviy boylikka ega bo'ladilar, balki empatik muloqot yuritish va boshqalar hissiyotlarini hisobga olish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalarni ham egallaydilar.

3. *So'zlashuv sezgirliigi va til ongini rivojlantirish.* Evfemizmlarni o'rgatish o'quvchilarda tilga bo'lgan sezgirlikni oshiradi, ya'ni qaysi holatda so'z tanlash muhimligini, so'zning hissiy bo'yoqlarini, kontekstga bog'liqligini anglash kabilar. Bu "til ongini" rivojlantirishga xizmat qiladi – o'quvchi "shu o'rinda bevosita aytganda xafa bo'lishi mumkin" deb his qiladi, shuning uchun yumshoqroq so'z tanlash zarurligini tushunadi. Jahon tilshunoslari Y.M. Khalil va I.J. Mohammed til o'rgatish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda evfemizmlarning rolini aniqlash maqsadida tajriba darsi o'tkazishadi. [3]

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, til o'rgatishda evfemizmlar kiritilganda o'quvchilarning so'z boyligi oshadi va nutqda moslashuvchanlik yaxshilanadi.

4. *Ijtimoiy muomala kompetensiyasi.* Maktab yoshidagi o'quvchilar ijtimoiy hayotga kirib borayotgan bir davrda, ularning nutq madaniyati, muloqot uslubi va muomala ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish nihoyatda muhimdir. Chunki o'quvchilar nafaqat bilim olish, balki jamiyatda o'z o'rnini topish, tengdoshlari va kattalar bilan to'g'ri muloqot o'rnatish jarayonida ham faol ishtirok etadi. Shu nuqtayi nazardan, evfemizmlarni o'rgatish o'quvchilarda ijtimoiy-muomala kompetensiyasini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Evfemizmlar yordamida o'quvchilar odob, hurmat va murosaga asoslangan muloqotni o'rganadi. Ular fikrni to'g'ridan-to'g'ri, qo'pol yoki salbiy ta'sir uyg'otuvchi so'zlar orqali emas, balki yumshoq, madaniy shaklda ifoda etishga odatlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida evfemizmlarni o'rgatish o'quvchilarning nafaqat lug'at boyligini, balki ularning ijtimoiy va psixologik moslashuvini ham rivojlantiradi. Evfemizmlar muloqot jarayonini yumshatadi, hurmat tamoyillariga asoslangan nutqni shakllantiradi va konfliktlarning oldini olishga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan evfemizmlar kommunikativ-faoliyat yondashuviga mos keladi, chunki ular o'quvchini real nutq vaziyatlarini tahlil qilishga va mos so'z tanlashga o'rgatadi. Psixologik jihatdan esa evfemizmlar stressni kamaytiradi, o'quvchilarda ijobiy emotsional muhit yaratadi. Natijada evfemizmlarni o'rgatish o'quvchilarning muloqot kompetensiyasini, axloqiy madaniyatini va umumiy nutq savodxonligini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gu, Haiyan. On Enlightenment of Euphemism in English Language Teaching // *Advances in Social Science, Education and Humanities Research*, volume 96. International Conference on Humanities Science, Management and Education Technology (HSMET 2017).). atlantis-press.com+1
2. Katermina, Veronika. Euphemisms as a Means of Manipulation in Pedagogical Discourse // *SOCIETY. INTEGRATION. EDUCATION*. Proceedings of the International Scientific Conference. Volume I, May 25–26, 2018. P. 209–217. <https://journals.ru.lv>
3. Khalil, Y.M., Mohammed, I.J. The Effect of Euphemism as Teaching Expressions on EFL University Students' Performance in Producing Vocabulary // *South Eastern European Journal of Public Health*, 2024.
4. Mamatova, F. The role of euphemisms in teaching // *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*. Volume 5, Issue 7, July 2020. <https://eprajournals.com>
5. Sabir, Aween Tahir; Ali, Hawkar Omar; Azeez, Paiman Zorab. The Impact of Educational Euphemistic Expressions on Kurdish EFL Learners and Teachers // *Academic Journal of Nawroz University (AJNU)*. Vol. 12, No. 2, 2023.
6. Zhang, Jiayuan. Study of English Euphemisms: Functions, Classification, and Cultural Implications // *International Journal of Education and Humanities*. ISSN.